

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

**PEDAGOG-TARBIYACHIGA XOS BO'LGAN SHAXSIY
XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.**

Jabborova Marifat Qodiraliyevna
*Farg'ona davlat universiteti
 Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи o'qituvchisi
 Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
 Madatzoda Mayramxon Muxammattursun qizi
 Fargona shaxar 56- DMTT tarbiyachisi*

Annotatsiya Pedagoglik kasbini egallagan har bir inson avvalo pedagog shaxsiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etishi, maxsus kasbiy tayyorgarlikni to'la o'zlashtirgan bo'lishi, pedagogik mahorat, bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishi juda muhimdir.

Kalit so'zlar: innovatsiya, genofond, intellectual, standart, global, uzlucksiz ta'lif, barkamol, salohiyat, me'yor, mutaffakkir, ma'rifatparvar.

Respublikamizda so'ngi yillarda tarbiyachi pedagoglarning ma'naviy qiyofasi, ilmiy salohiyati, ilm fan va innovatsiyani rivojlantirish hamda uzlucksiz ta'lif tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Qaysi sohani olmaylik biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, mакtabgacha ta'lif tizimidan boshlanadi." deb ta'kidlaganidek hozirgi kunda global o'zgarishlar, oliy ta'linda fikrlash doirasi keng va mulohazali pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlatni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikamizdagi mustaqil huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatning qurish yo'lidagi ulkan ishlar insonni yangidan kashf qilishga, uni o'zligini anglashda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda va ma'naviy intellektual, aqliy-amaliy rivojlanish uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi.

Mustaqil O'zbekistonimizda yangi ta'lif standartlari asosida ta'lif va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda tarbiyachi faoliyatiga, uning demokratik jamiyatda tutgan o'rniga alohida etibor berilmoqda

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lган vaqtдан beri pedagoglik faoliyati uzlusiz davom etib kelmoqda. Pedagoglik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharaflı hamda o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan. Jamiatda pedagog birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi. Pedagog-tarbiyachiga yosh avlodni, xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas'uliyatlari vazifa yuklatilgan. Pedagogning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u insonni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbni baxtga, nurga to'ldiradi. Sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash uzlusiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning saviyasiga, tayyorgarligiga va faoliyatiga, yosh avlodni o'qitish tarbiyalash ishiga bo'lган munosabatiga bog'liqdir. Pedagog jamiatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, shunday ekan har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda pedagog muayan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Shunday ekan, pedagog mustaqillik g'oyasiga e'tiqodi, har tomonlama rivojlangan ilmiy taffakuri, kasbiga tegishli ma'lumoti, yani o'z fanining chuqur bilim-doni pedagogik muloqat ustasi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lish lozim .

Mamlakatimizning kelajagi bo'lган yoshlarimiz o'z murabbiylarini nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar buning ucun har bir pedagog O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunida ko'rsatil-ganidek, yuksak kasbiy tayorgarligi va yuqori ahloqiy fazilat egasi bo'lislari darkor.

Qadimiy Sharq va G'arb mutaffakkir va ma'rifatparvar ajdodlarimiz ijodiy faoliyatida ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotlari, pedagogik qarashlari, hozirgi yosh avlod uchun ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkiri Sa'diy Sheroziy fikricha – odam bolasi yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi, unga ta'sir qiladigan axloqiy omillar oqibatida yaxshi yoki yomon bo'ladi. Axloqiy kamolotning zaruriy sharti – o'qish, bilim olish, hunar egallashdir deydi. Sa'diyning axloqiy fikrlari asrlar davomida xalq ommasiga eng yaqin maslahatgo'y murabbiy bo'lib keldi.

Sog'lom muhitda – degan edi Ibn Sino axloq yaxshilanadi va takomillashib boradi. Tarbiya yordamida muhitning salbiy sifatini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

A.Jomiy inson hayotining ma'nosi odamlarga yaxshilik qilishda deb biladi. Ustoz kasbini ulug'lab, ustozdan o'rganish va o'rgangan narsalarini boshqalarga o'rgatish insoniy sifatlardan deydi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Sharqning donishmandi, axloq ilmining otasi Luqmon Hakim ustoz kasbi haqida shunday deydi:

Barcha yukni ko'tardim, ammo bundan og'ir yukni ko'rmadim.

G'arb mutafakkiri Ya.A.Komenskiy pedagog faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini yuqori baholaydi, ta'lim tarbiya ishining muvafaqiyatli bo'lishi o'qituvchiga bog'liqligini aytadi. Olimning talab etishicha, pedagog o'z ishining ustasi bo'lishi, o'qitish san'atini mukkamal egallashi lozim. U "Sof vijdonli o'z kasbini sevadigan va o'z bilim mahoratini uzlusiz ravishda takomillashtirib boradigan kishilargina o'qituvchi bo'lishi mumkin" – deb ta'kidlagan edi.

I.T Pestalotsi axloqiy tarbiyachining bolalarga shaxsiy namuna bo'lishiga alohida ahamiyat beradi. Bolalarda ijobiy fazilatlarni o'stirishda pedagogning rolini yuqori baholaydi. Oilada bolaga yoshligidan boshlab beriladigan tarbiyani mazmunini ishlab chiqadi, bola tarbiyasida oila bola qobiliyatini garmonik rivojlantirishiga mas'ul ekanligini ta'kidlaydi.

Pedagoglik kasbini egallagan har bir inson avvalo pedagog shaxsiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etishi maxsus kasbiy tayyorgarlikni to'la o'zlashtirgan bo'lishi, pedagogik mahorat, bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishi juda muhim.

Pedagog-tarbiyachining shaxsiy xususiyatlariga bag'rikenglik, hamdardlik, sabr-toqat, empatiya, professionallik, bolalarni tinglash va tushunish qobiliyati, o'rganishga va o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik, shuningdek, o'z kasbiga va bolalariga muhabbat kabi fazilatlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, yetuk pedagog tashkilotchilik qobiliyatiga ega, bolalarni qanday rag'batlantirishni va qulay ta'lim muhitini yaratishni biladi.

Pedagogning maxsus kasbiy tayyorgarligi pedagogika oliy o'quv yurtlarida oliy pedagogik ma'lumot olishni o'z ichiga oladi. Kadrlar tayyorlashda odatda pedagogika fanlari, psixologiya, o'qitish metodikasi, ta'lim psixologiyasi, umumiylar va yoshga bog'liq pedagogika, shuningdek, mutaxassislikka qarab ixtisoslashtirilgan fanlarni (matematika, chet tili, fizika va boshqalar) o'z ichiga oladi. Qolaversa, ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash ham yetuk kadrlar tayyorlashning muhim qismidir.

Tarbiyachining pedagogik mahoratiga darslarni rejalashtirish va olib borish, bolalar va ota-onalar bilan samarali muloqot qilish, qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi va ilhomlantiruvchi o'quv muhitini yaratish, bolalarning individual ehtiyojlari va xilma-xilligi bilan ishslash qobiliyati, o'qitish usullarini turli xil ta'lim uslublariga moslashtirish, bolalarni rag'batlantirish qobiliyati kiradi. Shuningda, guruhda ijobiy munosabatlar o'rnatish, asosiy ko'nikmalarni egallahsga, ta'limiy

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

faoliyatlarni tashkil etish, turli xil o'qitish usullaridan foydalanish, tartib-intizom, samarali muloqot qilish, bolalarni mustaqil fikrlash va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning ehtiyojlarini tushunish kiradi.

Yurtimizda olib borilayotgan uzlusiz ta'lif tizimi o'z oldiga yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash vazifasini qo'ygan. Shuning uchun ham ta'lif va tarbiya jarayonida yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini boyitish, ma'naviy olamini kengaytirish, tafakkurini shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bunday maqsadga to'laqonli erishish uchun, albatta ta'lif- tarbiya tizimiga bilim darajasi yuqori, yuksak ma'naviyat sohibi, tafakkuri keng, pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollangan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana oladigan pedagoglarni jalb qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Sh. M. Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz". Toshkent O'zbekiston "-2017.
2. Babayeva D.R. —Nutq o'stirish metodikasi T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma.
3. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Pedagogical Methods and Conditions for the Innovative Formation of Motivation of Young Handball Players." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.9 (2023): 13-22.
4. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Pedagogical Aspects of Forming Sports Motivation." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.9 (2023): 23-30.
5. Ruzimatov, Islomjon. "THE SIGNIFICANCE OF METHODS DETERMINING THE DEVELOPMENT OF LEADING PHYSICAL QUALITIES IN ROADCASTS." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 4.05 (2023): 177-185.
6. Erkuzievich, Islomjon Rozmatov. "THE IMPORTANCE OF THE METHODS USED IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITY OF BEHAVIOR OF INVADING ATHLETES CARRYING OUT HARD WORK." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 325-330.
7. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.

8. Toxirjonovich, Arabboyev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

9. Arabboyev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboyev." Научно-практическая конференция. 2022.

10. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.

11. Араббоев, К. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.

12. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.

13. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.

14. Муратова, Г. Р. "ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.

15. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.

16. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.

17. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

18. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
19. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.
20. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.
21. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.
22. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.
23. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.